

ID KARTA (BIOMETRIK PASPORT) FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH

Raimova Diyora Chori qizi
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti kursanti

Annotatsiya: maqolada O'zbekiston Respublikasi fuqarosining identifikatsiya ID-kartasi, uning joriy etilishi va olish sharoitlari haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston Respublikasi, fuqaro, identifikatsiya ID-kartasi, elektron tashuvchi qurilma (chip).

Bugungi kunda ko'p vazifali ID-kartalar dunyoning aksar mamlakatlarida qo'llanib kelinmoqda. Xususan, 84 ta davlat elektron tashuvchi qurilma, ya'ni maxsus chipga ega. 105 ta davlat esa chipsiz identifikatsiya kartalaridan foydalanadi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosining identifikatsiya ID-kartasi - O'zbekiston Respublikasi hududida egasining shaxsini va O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini tasdiqlaydigan, ID-karta egasining shaxsiy biografik va biometrik ma'lumotlari kiritilgan elektron tashuvchi qurilma (chip)ga ega bo'lgan hujjat.

Davlat rahbarining 2020-yil 22-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida identifikatsiya ID-kartalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni asosida 2021-yil 1-yanvardan boshlab, shaxsni raqamli identifikatsiya qilishning yagona tizimini joriy etish, ya'ni 2011-yilgi namunadagi biometrik pasport o'rniga O'zbekiston fuqarosining shaxsini va fuqaroligini tasdiqlaydigan elektron tashuvchi qurilmaga ega hujjat sifatida ID-kartalarni joriy etishga kirishildi.

ID-karta olish uchun fuqarolarimiz Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali ham elektron ariza berishlari mumkin. Elektron tarzda murojaat etishning afzalligi shundaki, siz migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'limiga kelib, almashtiriluvchi biometrik pasportingizni taqdim etgunga qadar bo'lgan jarayonlar, ya'ni biometrik pasportdagi, ota-ona to'g'risidagi va ungacha to'ldirilishi talab qilinuvchi ma'lumotlarni onlayn tarzda jo'natasiz. Keyin migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'limiga kelish vaqtini o'zingizga qulay kunga belgilashingiz mumkin.

Bugun dunyoda axborot texnologiyalari, raqamli iqtisodiyot tobora rivojlanib bormoqda. Pasport tizimini ham zamon talabiga moslashtirish, fuqarolarga turli qulayliklar

yaratish, ortiqcha ovoragarchiliklarning oldini olish maqsadida xalqaro hamjamiyatda keng qo'llanilayotgan ID-kartalarga o'tish ahamiyatli, deb topildi. Bundan tashqari, fuqarolarni raqamli identifikatsiyalashning yagona tizimini joriy etish, aholini ijtimoiy himoyasini ta'minlash va muhofaza qilish, turli davlat hisobiga olish tizimlari o'rtasida axborot hamkorligi uchun jismoniy shaxslar to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlardan samarali foydalanishda ham bunday kartalar yengillik yaratadi. Identifikatsiya elektron kartasi – O'zbekiston Respublikasi hududida unga egalik qiluvchining shaxsini va fuqaroligini tasdiqlaydigan hujjat hisoblanadi. Unda har bir fuqaroning yagona identifikatsiya raqami va shaxsiy ma'lumotlari saqlanadi. Davlat xizmatlaridan foydalanish vaqtida shaxsni aniqlash uchun foydalaniladigan mazkur hujjatni kelgusida biometrik pasport o'rniga berish nazarda tutilmoqda.

ID-karta ma'lumotlarni yig'ish punkti tomonidan fuqarolarga quyidagi muddatlarga beriladi:

- yangi tug'ilgan bolaga bir yoshgacha — ikki yil muddatga (ota-onalar, vasiylarning (homiylarning) ixtiyoriga ko'ra);
- bir yoshdan 16 yoshgacha — 5 yil muddatga (ota-onalar, vasiylarning (homiylarning) ixtiyoriga ko'ra);
- 16 yoshdan — 10 yil muddatga.

Fuqaro ID-karta olish uchun ma'lumotlarni yig'ish punktiga quyidagilarni taqdim etadi:

- belgilangan shakldagi ariza-anketa;
- ilgari berilgan pasport yoki ID-karta;
- tug'ilganlik haqidagi guvohnoma (ID-karta birinchi marotaba rasmiylashtirilayotganda);
- vakolatli organning qarori (ID-karta ashyoviy dalil sifatida olib qo'yilganida);
- davlat boji to'langanligi haqida kvitantsiya (elektron to'lov tizimlari orqali to'langanda kvitantsiya majburiy emas).

ID-karta ma'lumotlarni yig'ish punkti tomonidan hujjatlar to'liq qabul qilib olingandan so'ng bir ish kuni mobaynida beriladi.

- Agar fuqaro qo‘l barmoq izlari olinishidan bosh tortsa yoxud ko‘zoynakda yoki bosh kiyimda suratga tushish istagidan qaytmasa, ma’lumotlarni yig‘ish punkti fuqaroga ID-karta rasmiylashtirishni rad etadi.

- ID-karta rasmiylashtirish va berish jarayonida unda texnik nuqsonlar aniqlansa, basharti ular ma’lumotlarni yig‘ish punkti tomonidan yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa, ID-karta bepul almashtiriladi.

16 yoshga to‘lmagan shaxslarning ID-kartalari ularga ID-karta berish bo‘yicha murojaat qilgan ota-onalari yoki vasiylariga (homiylariga) beriladi.

- Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida identifikatsiya ID-kartasini olish uchun murojaat qilish.

- Identifikatsiya ID-kartasini rasmiylashtirish uchun O‘zbekiston Respublikasining «Davlat boji to‘g‘risida»gi Qonunida belgilangan miqdorda davlat boji undiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 5-yanvardagi PF-4262-son Farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasida pasport tizimi to‘g‘risidagi Nizom, amaldagi O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining biometrik pasporti 2030-yil 31 dekabrgacha haqiqiydir.

ID-kartani rasmiylashtirish va berish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- ota-onalar, vasiylarning (homiylarning) ixtiyoriga ko‘ra – bola tug‘ilgandan boshlab 16 yoshga to‘lguniga qadar;

- fuqaro 16 yoshga to‘lganda;

- O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilinganda yoki O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi sifatida tan olinganda;

- ID-kartaning amal qilish muddati tugaganda;

- fuqaroning familiyasi, ismi, otasining ismi, millati, tug‘ilgan sanasi, jinsi o‘zgarganda;

- ID-kartaga yoki chipga kiritilgan ma’lumotlarda noaniqliklar, xatolar va texnik nuqsonlar mavjudligi aniqlanganda;

- ID-karta yoki chip yaroqsiz holga kelganda;

- ID-karta ashyoviy dalil sifatida olib qo'yilganida;
- ID-karta yo'qotib qo'yilganda.

ID-karta egasining familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan sanasi, jinsi o'zgarganligi yoki ID-kartaga kiritilgan ma'lumotlarda noaniqliklar mavjudligi aniqlanganligi munosabati bilan almashtirilayotganda fuqaro tomonidan ma'lumotlarni yig'ish punktiga ushbu holatlarni tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etiladi va ariza kelib tushgan kundan boshlab besh ish kunida ko'rib chiqiladi.

ID-karta yo'qolsa-chi?

Fuqaro ID-kartani yo'qotgan taqdirda yangi ID-karta belgilangan tartibda ID-karta yo'qolganligi haqida ariza kelib tushgan kundan boshlab besh ish kunida beriladi.

ID-kartasi bo'lmagan fuqaro 16 yoshga to'lganda bir oydan kechikmasdan ma'lumotlarni yig'ish punktiga ID-kartani olish uchun murojaat etishi shart. Fuqaro ID-karta olish uchun ma'lumotlarni yig'ish punktiga quyidagilarni taqdim etadi:

- belgilangan shakldagi ariza-anketa;
- ilgari berilgan pasport yoki ID-karta;
- tug'ilganlik haqidagi guvohnoma (ID-karta birinchi marotaba rasmiylashtirilayotganda);
- vakolatli organning qarori (ID-karta ashyoviy dalil sifatida olib qo'yilganida);
- davlat bojini to'langanligi haqida kvitansiya (elektron to'lov tizimlari orqali to'langanda kvitansiya majburiy emas).

ID-karta ma'lumotlarni yig'ish punkti tomonidan hujjatlar to'liq qabul qilib olingandan so'ng bir ish kuni mobaynida beriladi.

Xalqaro tajribaga ko'ra, hozir ko'plab rivojlangan davlatlarda elektron ID-kartalar pasportning o'rnini bosuvchi huquqiy hujjat shaklida joriy etilgan. Unda shaxsning identifikatsion ma'lumotlari xavfsiz holda saqlanadi. Shuningdek, qog'oz tejaladi, barcha ma'lumotlar elektron tizimga o'tishi munosabati bilan oddiy pasportdan farqli o'laroq qalbakilashtirish imkoni mavjud emas. Davlat va bank xizmatlarini ko'rsatishda ortiqcha qog'ozbozlikni kamaytirish imkoniyati paydo bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 22.09.2020 yildagi PF-6065-son O'zbekiston Respublikasida identifikatsiya ID-kartalarni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori.

2. Internet ma'lumotlari.

